



EKOLOGIK ONGNI RIVOJLANTIRISHDA OILA VA TA'LIM MUASSASALARINING ROLI

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Hakimova Shohida Jo'rayevna

"Tabiiy va texnika fanlari" kafedrası o'qituvchisi

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0004-3858-4387>

E-mail: hakimova_shohida@mail.ru

Tel: +998 93 437 56 07

Bahriddinova Zulayho Zavqiddin qizi

Biologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: zzilola856@gmail.com

Tel: +998505307071

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik ongni shakllantirish va rivojlantirishda oila hamda ta'lim muassasalarining o'ziga xos o'rni tahlil etilgan. Unda ekologik tarbiyaning jamiyat barqaror rivojlanishidagi ahamiyati, yosh avlodda tabiatga mehr va mas'uliyat hissini uyg'otishning samarali usullari yoritilgan. Oila muhitida bolaga ekologik qadriyatlarni singdirish, maktab va oliy ta'lim tizimida ekologik ta'limni modernizatsiya qilish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, o'quvchilarda ekologik madaniyatni oshirishda darsdan tashqari mashg'ulotlar, loyihalar va ekologik tadbirlarning o'rni haqida ilmiy mulohazalar bildirilgan. Maqola natijalarida ekologik ongni rivojlantirishning kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi barqaror kelajakni ta'minlashda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, oila, ta'lim muassasasi, barqaror rivojlanish, yoshlar, ekologik qadriyatlar.

Abstract . This article analyzes the unique role of the family and educational institutions in shaping and developing ecological awareness. It discusses the importance of environmental education for sustainable development and explores effective ways to cultivate a sense of love and responsibility toward nature among the younger generation. The paper highlights the significance of instilling ecological values within the family environment and modernizing environmental education in schools and universities. In addition, it emphasizes the role of extracurricular activities, projects, and ecological events in enhancing students' environmental culture. The study concludes that a comprehensive approach to developing ecological awareness is a key factor in ensuring a sustainable future.

Keywords: Ecological awareness, ecological education, ecological culture, family, educational institution, sustainable development, youth, ecological values





Kirish

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida tabiat bilan o‘zaro munosabat muhim ijtimoiy va madaniy hodisaga aylangan. Bugungi kunda global ekologik muammolarning chuqurlashuvi — iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, biologik xilma-xillikning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi — insoniyatdan ekologik mas’uliyatni kuchaytirishni, ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik tarbiya va ta’lim tizimi jamiyat barqaror rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik ong — bu insonning tabiatga nisbatan ma’naviy-axloqiy munosabatini, ekologik qadriyatlar tizimini va atrof-muhitni asrashga bo‘lgan mas’uliyatini ifodalovchi tushunchadir. Uni shakllantirish jarayoni uzluksiz bo‘lib, eng avvalo oilada boshlanadi va ta’lim muassasalarida tizimli tarzda rivojlantiriladi. Oila bolaga tabiatga mehr, tejamkorlik, pokizlik va g‘amxo‘rlik kabi qadriyatlarni singdiruvchi birlamchi ijtimoiy muhit bo‘lsa, ta’lim muassasalari ushbu bilim va ko‘nikmalarni ilmiy-nazariy asosda mustahkamlovchi hamda kengaytiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’lim va tarbiya sohasida davlat siyosati barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda izchil amalga oshirilmoqda. “Yashil makon” umummilliy dasturi, ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari, ta’lim tizimida ekologik fanlarning joriy etilishi ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning amaliy ifodasidir.

Shu bois, ushbu maqolada ekologik ongni rivojlantirishda oila va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorlikdagi roli, ularning yosh avlod ongida ekologik qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni hamda samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

2. Tadqiqot usullari

Ushbu maqola ekologik ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganishda nazariy-tahliliy va taqqoslama yondashuv usullariga asoslangan. Ilmiy manbalar, pedagogik adabiyotlar, davlat dasturlari hamda ekologik ta’limga oid milliy konsepsiyalar tahlil qilindi. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni o‘rganish uchun kuzatuv, suhbat va kontent-tahlil metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, ekologik ongni shakllantirishda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar (ekologik o‘yinlar, loyihalar, treninglar) va amaliy faoliyatlar (ko‘chat ekish, chiqindilarni saralash, ekologik targ‘ibot tadbirlari) tahlil etildi.

3. Natijalar va muhokama

Oila — ekologik tarbiyaning birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Aynan oilada bola tabiatni qadrlash, tejamkorlik, poklik va g‘amxo‘rlik kabi insoniy fazilatlarini o‘zlashtiradi. Ota-onaning shaxsiy namunasi bolalarda ekologik mas’uliyatni shakllantiruvchi eng kuchli omildir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik



qadriyatlarga ega oilalarda voyaga yetgan bolalar tabiatga nisbatan ongli munosabatni erta shakllantiradi.

Ta'lim tizimi ekologik ongni ilmiy-nazariy asosda shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutdir. Maktab va oliy ta'lim dasturlariga ekologik fanlarning integratsiyasi, ekologik klublar va loyihalarning tashkil etilishi o'quvchilarning ekologik savodxonligini oshiradi. Ekologik ta'limning zamonaviy modeli faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki amaliy faoliyat va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ekologik tarbiyaning samarasi oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviy hamkorlikka bog'liq. Bu hamkorlik orqali bola maktabda o'rgangan ekologik bilimlarini oilaviy amaliyotda qo'llay oladi. Masalan, chiqindilarni ajratish, suvni tejash, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish kabi oddiy odatlar oila-maktab hamkorligi natijasida mustahkamlanadi. Bugungi ta'limda ekologik ongni rivojlantirish uchun STEAM-loyihalar, "Yashil tom" dasturlari, virtual laboratoriyalar va ekologik masofaviy kurslardan foydalanilmoqda. Bunday innovatsion usullar o'quvchilarda nafaqat ekologik bilim, balki ijodkorlik va mas'uliyatni ham kuchaytiradi.

4. Xulosa

Oila va ta'lim muassasalari ekologik ongni shakllantirishning ikki asosiy tayanchidir. Oila bolaga tabiatga mehr va mas'uliyat hissini singdirsa, ta'lim tizimi bu bilimlarni ilmiy va tizimli shaklda mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik ongni rivojlantirishda kompleks yondashuv, ya'ni oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining birgalikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan yosh avlodda ekologik mas'uliyat, barqaror rivojlanish g'oyasiga sodiqlik va tabiatga ongli munosabat shakllanadi.

Ekologik madaniyat — bu faqat tabiatni asrash haqida bilim emas, balki har bir insonning hayot tarzi va dunyoqarashidir. Yoshlar ekologik jihatdan mas'uliyatli, tabiatga e'tiborli, resurslardan oqilona foydalanuvchi bo'lib voyaga etishsa, mamlakatning ekologik barqarorligi ta'minlanadi. Shu boisdan ham yoshlar o'rtasida ekologik ma'rifatni keng targ'ib etish, amaliy ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ularni tabiatni sevishtirishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Yashil makon" umummilliy loyihasi to'g'risida, 2021-yil.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
3. "Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2019-yil.
4. R. To'xtasinov, S. Karimova. Ekologiya asoslari. T.: O'zbekiston, 2020.

